



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 1-avgust, shanba,
67 (24.247)-son

**O'zbek xalq
maqoli**

Birlikli uy -
barakatli,
g'ovg'ali uy -
halokatli

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

MUSTAQILLIK

35



**YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!**



Самарқандни 2030 йилгача ривожлантириш стратегияси лойиҳаси маъқулланди

**29 июль куни халқ
депутатлари вилоят
Кенгашининг навбатдаги,
34-сессияси ўтказилди.
Сессия ишини Кенгаш
раиси Ш.Негматов
бошқарди.**

Кун тартибига мувофиқ, дастлаб вилоятни 2030 йилгача ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш стратегияси лойиҳаси муҳокама қилинди.

Сессияда иштирок этган Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик ривожланиш ва ислохотлар агентлигининг директори ўринбосари Абдулла Абдуқодиров мазкур лойиҳа ва унда белгиланган вазифалар ҳақида маълумот берди.

– Мазкур ҳужжат “Ўзбекистон – 2030” стратегиясининг ҳудудий давоми бўлиб, унда умуммиллий мақсадлар Самарқанд вилоятининг иқтисодий, ижтимоий, демографик, тарихий ва табиий ҳусусиятларидан келиб чиққан ҳолда аниқ кўрсаткичлар, устувор йўналишлар ва манзилли лойиҳалар билан бойитилган, – деди А.Абдуқодиров. – Стратегия лойиҳасида белгиланган вазифа-

лар амалга оширилиши натижасида 2030 йилга бориб вилоят иқтисодиёти янги сифат босқичига кўтарилади. Хусусан, биринчи — иқтисодий ривожланиш, камбағалликни қисқартириш ва юқори даромадли бандликни таъминлаш йўналишида ялпи ҳудудий маҳсулот ҳажми ҳозирги 10,1 миллиард доллардан 20,5 миллиард АҚШ долларига, аҳоли жон бошига ялпи ҳудудий маҳсулот 3,6 минг доллардан 5,3 минг долларга етказилади. Саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми 2 баробарга оширилиб, 115 триллион сўмга, хизматлар ҳажми ҳам 2 баробар кўпайтирилиб, 150 триллион сўмга, қурилиш ишлари ҳажми 1,9 бараварга оширилиб, 36,9 триллион сўмга етказилади. Камбағалликка мутлақ барҳам берилиб, ишсизлик даражаси 4 фоизга қисқартирилади, аҳоли даромадлари ва меҳнат унумдорлиги оширилади. Экспорт салоҳияти ва хизматлар экспортини ривожлантиришга қаратилган иккинчи йўналиш бўйича экспортчи корхоналар сонини 630 тадан 720 тага, йиллик экспорт ҳажмини 3,5 миллиард АҚШ долларига етказиш ва экспорт географияси 120 та давлатгача кенгайтириш белгиланган.

(Давоми 2-саҳифада) >>>

Yangi turistik maskan ochildi

Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi arafasida Samarqand tumanining Mironqul qishlog'ida “Edelweiss Resort & SPA” dam olish maskani foydalanishga topshirildi.

40 gektar maydonda barpo etilgan majmuaning umumiy loyiha qiymati 22 million AQSh dollarini tashkil etadi. Majmuada 160 o'rinli mehmonxona, turli toifadagi shinam xonalar, qishki va yozgi mavsumlarda foydalanish mumkin bo'lgan cho'milish havzalari, SPA va sog'lomlashtirish markazi, zamonaviy muolaja xonalari hamda sayr yo'laklari barpo etilgan. Bir kunda 500 nafargacha mehmonga sifatli xizmat ko'rsatish quv-



vatiga ega. Maskan ish boshlashi bilan 150 ta yangi doimiy ish o'rni yaratildi. Loyihani amalga oshirish doirasida dam olish maskaniga boradigan 4 kilometr avtomobil yo'li asfaltlashtirilib,

zamonaviy ko'priq qurildi. Hududda ekologik muhitni yaxshilashga alohida e'tibor qaratilib, 50 mingdan ortiq manzarali daraxt va butalar ekildi. Ularni sug'orish uchun 15 kilometr masofadan buloq suvi tarmog'i torilib, tomchilatib sug'orish tizimi yo'lga qo'yildi.

Majmuaning ochilish marosimida viloyat va tuman hokimliklari rahbarlari, turizm sohasi mas'ullari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Tadbirida so'zga chiqqanlar bunday zamonaviy loyihalar viloyatimizning turistik salohiyatini yuksaltirish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratish orqali hudud iqtisodiyoti hamda aholi farovonligini oshirishga munosib hissa qo'shishini ta'kidladilar.



Ishtixonlik yoshlar respublikada viloyatimiz sharafiga himoya qiladi



“Tashabbusli budget”ning navbatdagi mavsumi boshlandi

Xabaringiz bor, joriy yilning 15-iyulidan “Tashabbusli budget” loyihasining 2026-yil ikkinchi mavsumi boshlandi. “Tashabbusli budget” aholi tomonidan mahalladagi dolzarb muammolarni hal etish uchun loyihalar taklif qilinib, ovoz berish orqali g'olib loyihalarni moliyalashtirish tizimidir.

2026-yil ikkinchi mavsumdan boshlab mазkur loyihada bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Birinchidan, deputatlar tashabbusi kengaytirildi. Ya'ni, endilikda deputatlar ajratilgan mablag' doirasida g'olib bo'lgan loyihalar orasidan bir yoki bir nechta loyihani qo'shimcha g'olib sifatida tanlash imkoniyati yaratildi.

Ikkinchidan, sherikchilik asosida moliyalashtirish imkoniyati saqlanib qoldi. Bunda agar aholi loyiha qiymatining belgilangan qismini shakllantirsa, loyiha ovoz berishsiz ham moliyalashtirilishi mumkin.

Uchinchi o'zgarish, loyiha qiymati cheklandi. Bunda qurilish-ta'mirlash loyihalari uchun 1 milliard 648 million so'mgacha, ji-hozlash loyihalari uchun 824 million so'mgacha mablag' ajratiladi. Yana minimal ovoz talabi joriy qilindi. Odatiy tartibda g'olib bo'lishi uchun loyiha kamida 50 ta ovoz to'plashi kerak.

Bundan tashqari, tanaffus tartibi qo'llaniladi. Ketma-ket ikki mavsum g'olib



bo'lgan mahallalar navbatdagi ikki mavsumda odatiy tartibda ishtirok etmaydi, ammo sherikchilik asosida qatnashishi mumkin.

Viloyatda “Tashabbusli budgetning ikkinchi mavsumi uchun qancha mablag' ajratiladi?”

Viloyatimiz uchun 2026-yil ikkinchi mavsumda 233 676 million so'm mablag' rejalashtirilgan va 142 ta g'olib loyihani amalga oshirilishi taxmin qilingan.

Hududlar kesimida:

Hudud nomi	Ajratilgan mablag' (million so'm)	Taxminiy g'olib loyihalar soni
	233 676	142
Samarqand shahar	24 442	15
Kattaqo'rg'on shahar	6 549	4
Oqdaryo tumani	7 688	5
Bulung'ur tumani	11 390	7
Jomboy tumani	8 827	5
Ishtixon tumani	15 661	10
Kattaqo'rg'on tumani	17 654	11
Qo'shrabot tumani	8 258	5
Narpay tumani	13 383	8
Payariq tumani	15 376	9
Past Darg'om tumani	24 488	15
Paxtachi tumani	13 098	8
Samarqand tumani	20 502	12
Nurobod tumani	8 827	5
Toyloq tumani	12 813	8
Urgut tumani	24 720	15

Eng ko'p mablag' Urgut tumani - 24 720 million so'm;

Past Darg'om tumani - 24 488 million so'm;

Samarqand shahri - 24 442 million so'm ajratiladi.

Eng ko'p Urgut, Past Darg'om va Samarqand shahridan 15 tadan loyiha g'oliblikni qo'lga kiritishi kutilmoqda.

**Quddus ISMOILOV,
viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
bosh mutaxassisi.**

1-AVGUSTDAN NIMALAR O'ZGARADI?

O'zbekistonning fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarida mehnat nizolarini ko'rishga ixtisoslashgan sudyalari faoliyat yuritish boshlaydi. Ular Oliy sud, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri sudlarida, shuningdek, qator tumanlararo va shahar sudlarida ish olib boradi.

O'zbekistonda ushlangan transport vositalarini jarima maydonchalaridan olib chiqish tartibi raqamlashtiriladi. Transport vositalarini saqlash joylaridan chiqarish uchun ruxsatnoma faqat ma'muriy ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) yoki ijro organi tomonidan “Jarima maydonchasi” axborot tizimida QR kod bilan tasdiqlanib, elektron shaklda yuboriladi.

O'zbekistonda kamyob va yo'qolib ketish xavfi yuqori bo'lgan yovvoyi hayvonlarni ov qilish taqiqlanadi.

Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qoidalarini buzilishi haqida foto yoki video orqali xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish tartibi joriy etiladi.

Chiqindilar, shinalar, rezina, bitum va boshqa yoqilg'i hisoblanmaydigan materiallarni, xususan, issiqxonalarda yoqqanlik uchun jismoniy shaxslarga 10,3 million so'mgacha, mansabdor shaxslarga 20,6 million so'mgacha jarima solinadi.

“Trade-in” dasturi doirasida eskirgan avtotransportlarni topshirgan jismoniy va yuridik shaxslarga yangi transport vositalarini xarid qilish uchun avtokredit foizining bir qismi qoplab beriladi.

Banklardan 500 AQSh dollarigacha bo'lgan naqd chet el valyutasini shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarsiz olish mumkin bo'ladi.

Самарқандни 2030 йилгача ривожлантириш стратегияси лойиҳаси маъқулланди

(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада).

Стратегия лойиҳасида “Инвестициялар-ни жалб этиш ва саноатни ҳудудлар бўйича диверсификация қилиш”, “Туризмни юқори даромадли хизматлар иқтисодиётига айлантириш”, “Қишлоқ хўжалиги, сув самарадорлиги ва агросаноат”, “Инфратузилма, урбанизация ва “Кенгайтирилган Самарқанд” модели”, “Инсон капитали, таълим ва соғлиқни сақлаш”, “Экология ва “яшил иқтисодиёт” йўналишларида ҳам устувор вазифалар белгиланган.

Стратегия ижроси стратегик режалаштириш ва ривожланишнинг рақамли платформаси ҳамда “Ijro.gov.uz” тизими орқали мониторинг қилинади. 2028 йилда стратегик ривожланиш ва ислохотлар агентлиги билан биргаликда оралиқ баҳолаш, 2031 йилнинг биринчи чорагида эса якуний баҳолаш ўтказилади. Шунингдек, ҳар йили мустақил тадқиқотлар ўтказилиб, натижалари жамоатчиликка эълон қилиб борилади.

Депутатлар белгиланётган вазифалар юзасидан ўз фикрлари, таклифларини билдирдилар ва стратегия лойиҳаси маъқулланди.

Шундан сўнг вилоят ҳоқими А.Бобоевнинг жорий йил биринчи ярмида вилоятни комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш юзасидан амалга оширилган ишлар тўғрисидаги ҳисоботи тингланди.

Вилоят прокурори М.Эшназаров давлатимиз раҳбарининг 2025 йил 18 мартдаги “Республи-

кадаги криминоген вазиятни кундалик таҳлил қилиш фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори ижроси юзасидан йилнинг дастлабки олти ойида олиб борилган ишлар ҳақида ахборот берди.

Қайд этилишича, йилнинг биринчи ярмида вилоятда ҳисобга олинган 6987 та жиноят-нинг қарийб 50 фоизи (3346 таси)ни ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятлар ташкил қилган. Олдини олиш мумкин бўлган жиноятлар 1695 та (умумий ҳисобга қўйилган жиноятларнинг 24 фоизи)ни ташкил қилиб, 57 фоизи ўғрилик, қирибгарлик ва тан жароҳати етказиш каби жиноятлардан иборат бўлган.

Ҳисобот даврида қўрилган чора-тадбирлар, профилактик ишлар натижасида 2025 йилда “қизил” тоифада бўлган 118 та маҳалланинг 47 тасида криминоген вазият яхшиланди, 52 тасида жиноят бўлмади. Оила - турмуш доирасидаги 123 та жиноят қайд этилиб, ўтган йилнинг мос даврига нисбатан бироз камайишига эришилди.

Аҳолини ташвишга соладиган ва кенг муҳокамаларга сабаб бўладиган босқинчилик жинояти 2025 йилнинг 6 ойига нисбатан 50 фоизга, йўл транспорт ҳодисаси 27, автотранспорт воситасини олиб қочиш 20, қирибгарлик ҳамда оғир тан жароҳати етказиш жинояти 15, қотиллик 13 фоизга камайди. Маҳаллаларда криминоген вазиятни яхшилаш мақсадида 417 та “Намунавий хавфсиз кўча” ва 410 та “Намунавий хавфсиз уй” ташкил қилиниб, маҳаллалар ва бошқа аҳоли гавжум жойларга 1154

та видеокузатув, 505 та ПТЗ, 851 та юз ва автороқамни таниб олувчи камералар, 1014 та домофон комплекслари ўрнатилди.

Аммо бу борадаги тадбирлар вилоятнинг барча ҳудудларида бирдек ташкил этилмаганлиги оқибатида, ёшлар томонидан содир этилган жиноятларнинг 52 фоизи Самарқанд шаҳри, Каттакўрғон, Паст Дарғом ва Ургут туманлари хиссасига тўғри келди. Мутасаддиларнинг масъулиятсизлиги туфайли Жомбой, Каттакўрғон, Нарпай, Оқдарё, Самарқанд ва Тойлоқ туманларида вояга етмаганлар жинояти ошган бўлса, аёллар жинояти Булунғур, Иштихон, Каттакўрғон ва Оқдарё туманларида ҳамда ёшлар жинояти Каттакўрғон туманида кўпайган.

– Вилоят прокуратураси томонидан ҳудудлардаги криминоген вазият доимий равишда таҳлил қилиниб, жиноятчиликни олдини олиш борасида олиб борилаётган ишлар аҳоли танқидий муҳокама қилиб келиниб, масъулларга нисбатан қатъий чорлар қўрилмоқда, – деди М.Эшназаров. – Хусусан, жорий йилнинг ўтган даврида маҳалла ҳудудида содир этилган олдини олиш мумкин бўлган жиноятлар юзасидан ўз хизмат вазифасини лозим даражада бажармаган 871 нафар ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевоcита амалга оширувчи ва унда иштирок этувчи шахслар интизомий ва маъмурий жавобгарликка тортилди, 4 ҳолатда эса жиноят иши қўзғатилди.

Сессияда шунингдек, вилоят ички ишлар

бошқармаси бошлиғи Т.Ариповнинг жиноятчилик қарши курашиш ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш борасида амалга оширилган ишлар, вилоят ИИБ йўл ҳаракат хавфсизлиги бошқармаси бошлиғи Б.Нигмановнинг Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 4 апрелдаги “Автомобиль йўлларида инсон хавфсизлигини ишончли таъминлаш ва ўлим ҳолатларини кескин камайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори ижроси юзасидан ҳисоботлари эшитилди.

Т.Ариповнинг маълум қилишича, йилнинг ўтган 6 ойида “112” тизими орқали 154 минг 304 та жиноят ва ҳодисалар тўғрисида хабарлар келиб тушиб, 1200 га яқин жиноятлар маъмурий ҳуқуқбузарлик вақтида тўхтатиб қолинган. Низоли оилаларда таътиққа учраган 3663 нафар аёлларга “химоя ордери” берилди, фарзандининг тарбиясига эътиборсиз бўлган 11066 нафар ота-оналар маъмурий жавобгарликка тортилди. “Қизил” тоифадаги ва криминоген вазияти оғир маҳаллаларда 7705 нафар ишсиз рўйхати шакллантирилиб, 2976 нафарининг бандлиги таъминланди. Муқаддам судланган ва маъмурий назоратдаги 2586 нафар шахс ўрганилиб, 2062 нафарининг соғлиғини тиклашга кўмаклашилди, 359 нафарининг бандлиги таъминланди, 130 нафарининг ижтимоий-маиший муаммолари ҳал қилинди, 25 нафарига моддий ёрдам кўрсатилди, 10 нафари касбга йўналтирилди.

Вилоят ИИБ йўл ҳаракати хавфсизлиги

бошқармаси бошлиғи Б.Нигманов йилнинг биринчи ярмида 311 та йўл транспорт ҳодисаси содир этилганини маълум қилди. Мазкур йўл транспорт ҳодисаларининг 211 тасида фуқароларга тан жароҳати етказилган, 100 таси ўлим билан боғлиқ бўлган. Бундан ташқари, 143 ҳолатда пиёдаларни уриб юбориш, 109 ҳолатда транспорт воситалари тўқнашуви қайд этилди.

Ҳисобот даврида инспекторлар томонидан жами 432 минг 871 та, жумладан, 110 минг 191 та қўпол қоидабузарликлар аниқланган. 1625 ҳолатда ҳайдовчилар транспорт воситасини маст ҳолда бошқарган. Махсус автоматлаштирилган фото ва видео қайд этиш техника воситалари томонидан 806 минг 974 та (жарималар умумий миқдори – 421 миллиард 295 миллион сўм) қоидабузарликлар аниқланди, 677 мингдан ортиқ қоидабузарликлар учун 190 миллиард сўм жарималар ундирилган.

Б.Нигманов депутатлардан вилоят ҳудудидаги пиёдалар ва транспорт ҳаракати серкаторов автомобил йўларида пиёдалар томонидан йўлнинг белгиланмаган жойидан кесиб ўтишларининг олдини олиш мақсадида темир панжаралар ўрнатиш учун маблағ ажратилишида амалий ёрдам сўради.

Сессияда ўзбошимчилик билан эгаллаб олинган ер участкалари ҳамда уларда қурилган бинолар ва иншоотларга бўлган ҳуқуқларни эътироф этиш, “Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида сувни тежайдиган замонавий сўғориш технологияларини жорий этиш” лойиҳа концепциясини тасдиқлаш, вилоят маҳаллий бюджетининг қўшимча манбаларидан фойдаланиш, “10 та замонавий электропоезд харид қилиш учун” лойиҳа концепциясини қилишиш тўғрисидаги ва бошқа масалалар ҳам кўриб чиқилиб, Кенгашининг қарорлари қабул қилинди.

ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ,

аҳоли фаровонлиги ва ҳудудий тараққиёт



►| Hokim hisobotidan

ФАРОВОНЛИК УЧУН МУСТАҲКАМ ПОЙДЕВОР

Ҳудудларнинг барқарор ривожланиши замонавий инфратузилмага бевоcита боғлиқ. Шунинг учун вилоятимизда қурилиш, обodonлаштириш, коммунал хизматлар ва ижтимоий соҳалар объектларини ривожлантириш бўйича кенг қўламли ишлар амалга оширилмоқда.

Қайд этилишича, жорий йилда қарийб 1480 та объектда қурилиш-таъмирлаш ишлари олиб боришмоқда. Бугунги кунга қадар **2,6 триллион** сўмлик қурилиш-таъмирлаш ишлари бажарилиб, 135 та объект фойдаланишга топширилди.

Инсон капиталини ривожлантириш давлат сиёсатининг энг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади. Шу мақсадда вилоятда **139 та мактаб, 66 та боғча, 127 та тиббиёт объекти, 5 та олий таълим** объекти бўйича қурилиш ва таъмирлаш ишлари амалга оширилмоқда.

Бу ишлар пировардида мактабларда қўшимча **65,5 мингта** ўқувчи ўрни яратилишини таъминлайди. Мактабгача таълим соҳасида эса **8840 та янги ўрин** ташкил этилади.

Аҳоли турмуш сифати, аввало, зарур инфратузилма хизматларининг барқарорлиги билан белгиланади. Шу боис ичимлик суви таъминотини яхшилаш бўйича **174 та сув иншооти ва 1435 километр тармоқ** қурилмоқда. Бу ишлар натижасида 57 маҳалладаги **22 минг** нафар аҳоли илк бор ичимлик суви билан таъминланади, 32 минг нафар аҳолининг сув таъминоти яхшиланади.

Электр таъминоти соҳасида ҳам кенг қўламли ишлар амалга оширилмоқда. 80 та трансформатор пункти ва **153 километр электр тармоғи** янгиланди. Йил якунига қадар яна **185 та янги трансформатор** ўрнатилиши ва **313 километр электр тармоғи** алмаштирилиши режалаштирилган. Бу **200 минг** нафардан зиёд аҳолининг электр таъминотини яхшилаш имконини беради.

Вилоят раҳбари ҳудудлар ўртасидаги ривожланиш тафовутини камайтириш, ҳар бир туман ва маҳаллада янги имкониятлар яратиш муҳим вазифа эканини таъкидлади. Шу мақсадда Янги Ўзбекистон қиёфасидаги ҳудудларни ривожлантириш, оғир туманлар ва маҳаллаларни қўллаб-қувватлаш бўйича алоҳида дастурлар амалга оширилмоқда.

Вилоятда амалга оширилаётган ислохотлар замирида ягона мақсад инсон қадрини улуғлаш, аҳоли фаровонлигини ошириш ва ҳудудларни барқарор ривожлантириш ғояси мужассам. Бу жараёнда энг муҳим натижа - инсонларнинг ҳаётидаги ижобий ўзгаришлар, оилалар даромадининг ортиши ва келажакка бўлган ишончининг мустаҳкамланишидир.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг қўламли ислохотларнинг асосий мазмун-моҳияти инсон манфаатларини таъминлаш, аҳоли фаровонлигини ошириш ва ҳудудларни ҳар томонлама ривожлантиришга қаратилган.Вилоятимизда ҳам бугунги кунда ана шу устувор вазифалардан келиб чиқиб, иқтисодиётни ривожлантириш, янги иш ўринлари яратиш, инвестицияларни жалб этиш, инфратузилмани янгилаш ва аҳоли учун муносиб яшаш шароитларини яратиш бўйича тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Халқ депутатлари вилоят Кенгаши сессиясида биринчи ярим йиллик бўйича ҳисобот берган вилоят ҳоқими А.Бобоевнинг таъкидлашича, жойлардаги ислохотларнинг ҳақиқий самараси, аввало, инсонлар ҳаётидаги ижобий ўзгаришларда намоён бўлади. Шу маънода вилоятда молиявий имкониятларни кенгайтириш борасида салмоқли натижаларга эришилганини алоҳида қайд этиш мумкин. Жумладан, маҳаллий бюджет даромадлари 3,9 триллион сўмни ташкил этиб, белгиланган режа 113 фоизга бажарилди. Натижада ҳудудлар ихтиёрида 445,6 миллиард сўм қўшимча маблағ шаклланди. Бу маблағлар маҳаллий ташаббусларни қўллаб-қувватлаш, аҳоли мурожаатларида кўтарилган масалаларни тезкор ҳал этиш ва янги ривожланиш лойиҳаларини амалга ошириш учун қўшимча имконият яратмоқда.

ТАРАҚҚИЁТНИНГ АСОСИЙ ДРАЙВЕРИ

Вилоят иқтисодиётида саноат соҳасининг ўрни тобора ортиб бормоқда. Соҳадаги 100 та салоҳиятли корхонада ишлаб чиқариш таннархини пасайтиришга қаратилган дастур ишлаб чиқилгани ва унинг самаралари эътиборга молик. Зотан, ушбу ишлар натижасида 53 та корхонада **30 миллиард сўм** маблағ иқтисод қилиниб, қўшимча **100 миллиард сўмлик** саноат маҳсулот ишлаб чиқариш имконияти яратилди.

Мисол учун, 11 та корхонада умумий қуввати **8500 киловатт** бўлган қуёш панеллари ўрнатилган. Жумладан, «YEC Gilam» корхонасида ўрнатилган 2600 киловаттлик қуёш панели натижасида маҳсулот ишлаб чиқариш харажатлари камайиб, таннарх 3-4 фоизга қисқарди.

Яна бир мисол, Самарқанд туманидаги «Sam Rafoat Textile» корхонасида рақамли SCADA бошқарув тизимининг жорий этилишидир. Хорижий мутахассислар иштирокида амалга оширилган ушбу лойиҳа натижасида электр энергияси сарфи 30 фоизга, сув истеъмоли 20 фоизга камайди. Бу эса маҳсулот таннархини 8-10 фоизга пасайтириб, корхонанинг халқаро бозордаги рақобат имкониятларини оширди.

Дарвоқе, вилоятимизда йирик инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш орқали янги ишлаб чиқариш қувватларини ташкил этишга катта эътибор қаратилаётганини ҳам алоҳида таъкидлаш мумкин. Чунки бу борадаги саъй-ҳаракатлар натижасида Жомбой туманида Хитой компаниялари билан ҳамкорликда қиймати **90 миллион доллар** бўлган шакар ишлаб чиқариш лойиҳаси амалга оширилмоқда.

Самарқанд шаҳрида эса қиймати **500 миллион долларлик** целлюлоза қоғоз, саноат картони ва қадоқлаш қоғози ишлаб чиқариш лойиҳасини ташкил этиш режалаштирилган.

Вилоят раҳбари нутқида таъкидланганидек, амалга оширилаётган барча ислохотларнинг пировард мақсади - аҳоли учун муносиб турмуш шароити яратиш, инсонларнинг даромад манбаларини кўпайтириш ва ҳар бир оиланинг фаровон ҳаёт кечиришига эришишдан иборат. Шу боис аҳоли бандлигини таъминлаш, камбағалликни қисқартириш ва янги имкониятлар яратиш масалаларига алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Жорий йилда вилоятда 618 минг нафар аҳолини даромадли меҳнат билан таъминлаш, ишсизлик даражасини 4,7 фоиздан 4,2 фоизга тушириш вазифаси белгиланган. Бу мақсадлар доирасида 470 маҳалла ва 6 туманни «ишсизлик ва камбағалликдан ҳоли ҳудуд»га айлантириш бўйича аниқ чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.



МАҲАЛЛАЛАР ИХТИСОСЛАШМОҚДА

Бугун ҳар бир ҳудуд табиий имкониятлари, аҳолининг тажрибаси ва бозор талабидан келиб чиқиб, маҳаллалар муайян йўналишларга ихтисослаштирилмоқда. Ўтган даврда 82 маҳалла чуқур ихтисослаштирилди. Бу орқали аҳоли томорқаларидан самарали фойдаланиш, кичик ишлаб чиқариш ва оилавий тадбиркорликни ривожлантириш учун янги имкониятлар яратилди.

Жумладан, Булунғур туманидаги Ниёзмат маҳалласида картошқачилик йўналишида амалга оширилган ишлар бу борадаги яхши тажрибалардан бири бўлди. Маҳаллада 47 нафар фуқарога **687 миллион сўм** кредит, 14 нафар фуқарога субсидия ажратилди. Натижада 125 нафар аҳоли ягона йўналиш асосида иш олиб бориб, барқарор даромад олиш имкониятига эга бўлди.

Камбағалликни қисқартиришда хонадонларда кичик ишлаб чиқаришни ташкил этиш муҳим аҳамият касб этмоқда. Айниқса, паррандачилик, чорвачилик, томорқачилик ва оилавий тадбиркорлик йўналишларидаги лойиҳалар аҳоли учун самарали даромад манбаи бўлмоқда.

Масалан, «Навобод насли парранда» фермер хўжалиги томонидан **54 та хонадонда** гўшт йўналишида паррандачилик ташкил этилди. Эътиборлиси, ҳар бир хонадон 40 кунлик парвариш даври якунида ўртача **22-23 миллион сўм** даромад олиш имкониятига эга бўлмоқда.

Бундай лойиҳаларни кенгайтириш орқали юзлаб оилаларни камбағалликдан чиқариш ва уларнинг иқтисодий мустақиллигини таъминлаш кўзда тутилган.



ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

tarixning yangi sahifalarini ochdi

Mustaqillik yillari mamlakatimizda boshqa sohalar qatorida tarix, arxeologiya va madaniy merosni muhofaza qilish sohasi ham tubdan rivojlanib, yangi bosqichga koʻtarildi. Bu jarayonda insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy markazlaridan biri boʻlgan Samarqandning uch ming yillik tarixi, boy madaniy merosi va arxeologik yodgorliklarini ilmiy asosda oʻrganish, tarixiy obidalarini muhofaza qilish hamda kelajak avlodga yetkazish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.



Jumladan, Yahyo Gʻulomov nomidagi Samarqand arxeologiya institutida «Oʻzbekistonda arxeologiya fanini rivojlantirish konsepsiyasi» ishlab chiqildi. Unda Oʻzbekistonning jahon sivilizatsiyasi tizimidagi oʻrni, ajdodlarimizning umuminsoniy tamaddunga qoʻshgan hisssasi, arxeologiya fanining istiqbolli yoʻnalishlari va qadimgi davrdan Temuriylar davrigacha boʻlgan davlatchilik hamda madaniy taraqqiyot bosqichlarini tadqiq qilish vazifalari belgilab berildi.

Mustaqillikdan avval xalqimiz tarixining koʻplab sahifalari mafkuraviy qarashlar asosida bir tomonlama talqin etilgan boʻlsa, istiqlol yillarida tarixiy haqiqatni arxeologik va yozma manbalar asosida tiklash imkoniyati paydo boʻldi. Oʻzbekiston hududida ilk odamlarning paydo boʻlishi, qadimgi shaharlar va davlatchilikning shakllanishi, Buyuk ipak yoʻlidagi madaniy aloqalar, mahalliy dinlar va urf-odatlar, hunarmandchilik va ishlab chiqarish tarixini kompleks oʻrganish boshlandi. Bu esa institut tomonidan koʻplab muhim ilmiy natijalarni qoʻlga kiritish imkoni berdi.

Xususan, Ahmad Fargʻoniy, Imom Moturidiy, Imom Buxoriy, Burhoniddin Margʻinoniy, Sohbiqiron Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek kabi

ulugʻ salafimizning ilmiy merosi, ular yashab oʻtgan davr madaniyati va taraqqiyotini oʻrganishda, Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, Xiva, Termiz, Toshkent, Margʻilon singari qadimiy shaharlarimizning muborak tarixiy sanalarini rasman aniqlashda oʻzbek arxeologiyasining xizmatlari beqiyos boʻldi. Ushbu yubiley tantanalarning UNESCO shafeligida oʻtkazilishi, keyingi 35 yil davomida mamlakatimizda olib borilgan arxeologiya fani izlanishlarining naqadar serqirra va sermahsul boʻlganligidan hamda respublikamizning turli hududlarida olib borilgan qazishma ishlari yangi ilmiy kashfiyotlarni qoʻlga kiritish imkonini berganidan dalolat. Misol uchun, Samarqanddagi Koʻktepa yodgorligining kashf etilishi milliy arxeologiyaning mustaqillik yillaridagi eng katta yutuqlaridan biri boʻldi. Chelak shahri yaqinida joylashgan ushbu yodgorlik miloddan avvalgi XIII asrlardan shakllana boshlagan qadimiy shahar markazi ekani aniqlandi. Qazishmalar davomida bir gektarga yaqin maydonni egallagan ulkan ibodatxona, mahobatli saroy majmuasi va shartli ravishda «Sak malikasi qabri» deb atalgan dafn inshooti ochildi. Bu topilmalar qadimgi Sugʻd aholisining diniy qarashlari, siyosiy boshqaruvi, meʼmorchiligi va ijtimoiy tuzumini moddiy manbalar asosida oʻrganishga yoʻl ochdi. Ayni vaqtda Koʻktepa yunon mualliflari tilga olgan Sugʻdning qadimgi siyosiy markazlaridan biri Basileya bilan qiyoslanmoqda.

ham talabgorlar jalb qilindi. Birinchi yarim yillikda taʼlim eksporti hajmi 48 ming AQSh dollariga yetdi. Bu oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 128 foizga hamda oʻtgan yilgi umumiy koʻrsatkichdan 20 foizga oshdi.

2026-yilda amerikalik xalqaro ekspert Vinsent Russa taklif qilinib, viloyatdagi birinchi sunʼiy intellekt laboratoriyasi va sunʼiy intellektni oʻrganish kurslariga start berildi va mart oyida Smart Library loyihasiga asos solindi. Davlatimiz rahbari tashrifi davomida ochilgan mazkur kutubxona uchun Yevropaning yirik nashriyotlaridan biri boʻlgan Vector Publishing House tomonidan 40 ming Yevro miqdoridagi investitsion grantni jalb qilish boʻyicha kelishuvga erishildi.

“Innovatsion Maskan” nodavlat taʼlim muassasiga 2023-yilda 3450 nafar yosh ingliz tilini oʻrgatish uchun murojaat qilib, shundan 450 nafari turli darajadagi xalqaro sertifikatlarni qoʻlga kiritgandi. Joriy yilda esa ushbu markazda 6500 nafar yosh ingliz tilini oʻrganmoqda, bu oʻtgan yilga nisbatan 3050 nafarga koʻp. Ulardan 1400 nafari turli darajadagi xalqaro sertifikatlarga ega boʻldi.

Kelgusida oʻquv markazlari oʻrtasida sogʻlom raqobat muhitini shakllantirish, xorijiy til oʻrgatish sifatini yanada oshirish, dunyoning yetakchi taʼlim markazlari bilan hamkorlikni kengaytirish va xalqaro standartlarni tatbiq etish orqali sertifikatga ega yoshlar sonini koʻpaytirishga harakat qilyapmiz. Shuningdek, imtihonlar sonini oshirish orqali yangi eksport bozorlarini zabt etish, jumladan Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan talabgorlarni jalb qilish rejalashtirilgan.

AFROSIYOB — SAMARQAND TARIXINING JONLI GUVOHI

Samarqandning qadimiy oʻrni boʻlgan Afrosiyobda olib borilgan tadqiqotlar shaharning uch ming yillik tarixini yoritishga xizmat qilmoqda. Qazishmalar orqali shaharning mudofaa devorlari, saroylari, turar joylari, hunarmandchilik mahallalari va diniy inshootlari oʻrganildi. 2000-yilda Afrosiyobda Qoraxoniylar davriga oid saroy va uni bezab turgan devoriy suratlar galereyasining ochilishi jahon ahamiyatiga molik voqea boʻldi. Suratlarida insonlar, hayvonlar va qushlar tasvirlangan boʻlib, ular islom davri Markaziy Osiyo tasviriy sanʼatining noyob namunasidir. Tadqiqotchilar taxtda oʻtirgan hukmdor tasvirida Qoraxoniylar sulolasi vakili Usmon ifodalangan, degan xulosaga kelganlar. Bunday devoriy suratlar musulmon Sharqining oʻrta asrlar sanʼatida kam uchraydigan noyob majmua hisoblanadi. Afrosiyobdan topilgan devoriy suratlar va meʼmoriy qoldiqlarni saqlash faqat arxeologik qazishmalar bilan cheklanmadi. Institutning kimyoviy-texnologik tadqiqotlar, restavratsiya va konservatsiya laboratoriyasida Afrosiyob devoriy rasmlarining pigmentlari, oʻrta asr oynalari, metall va sopol buyumlar zamonaviy tabiiy-ilmiy usullarda tahlil qilinmoqda. 2025-yilda Afrosiyob va boshqa yodgorliklardan topilgan metall buyumlardan namunalar olinib, ilk bor rentgenografik va rentgen-difraktsion usullarda oʻrganish ishlari boshlangan.

KOFIRQALʼA — SUGʻD HUKMDORLARI QARORGOH

Samarqand shahrining janubida, Dargʻom kanali boʻyida joylashgan Kofirqalʼa yodgorligidagi tadqiqotlar ham mustaqillik yillaridagi eng muhim ilmiy loyihalardan biriga aylandi. Oʻn yildan ortiq vaqt davom etgan qazishmalar natijasida bu yerdan mingga yaqin bulla — hujjat, eshik va tovarlarni muhrashda ishlatilgan loy muhrlar topildi. Ular Sugʻdning siyosiy boshqaruvi, savdo munosabatlari, mulkchilik tizimi va xalqaro aloqalarini oʻrganishda bebaho manba boʻlib xizmat qilmoqda. Tadqiqotlar asosida Kofirqalʼa ilk oʻrta asrlarda Samarqand hukmdorlarining shahar tashqarisidagi qarorgohi — Rivdad boʻlgan, degan fikr asoslandi.

2017-yilda Kofirqalʼadan maʼbud va unga taʼzim qilayotgan insonlar tasvirlangan noyob yogʻoch panno qoldiqlari topildi. Pannoda 46 nafar inson tasviri mavjud boʻlib, bunday koʻp personajli kompozitsiya Markaziy Osiyo arxeologiyasida birinchi marta aniqlangan. Topilma ilk oʻrta asr Sugʻd aholisining diniy tasavvurlari, marosimlari va badiiy madaniyatini oʻrganish uchun jahon ahamiyatiga ega manba hisoblanadi. Institut mutaxassislari oʻzbek-italyan qoʻshma ekspeditsiyasi doirasida Kofirqalʼada ochilgan meʼmoriy qoldiqlarni konservatsiya qilish ishlari ham olib bordilar. Yodgorlikdan topilgan oʻyma va yongʻan yogʻoch parchalari tozalanib, Yevropa va Osiyoning mashhur muzeylarida namoyish qilindi.

1530 DAN ZIYOD ARXEOLOGIK TOPILMALAR RESTAVRATSIYA QILINDI

Arxeologiyada yodgorlikni ochish ishning bir qismi, xolos. Topilgan ashyo va meʼmoriy qoldiqlarni asrash, ilmiy hujjatlashtirish, restavratsiya qilish va muzeylarga topshirish katta masʼuliyat talab etadi. Institutning restavratsiya va konservatsiya laboratoriyasi tomonidan 2022-yilda 565 ta, 2023-yilda 111 ta, 2024-yilda 591 ta, 2025-yilda esa 269 ta arxeologik ashyo tozalanib, taʼmirlandi yoki konservatsiya qilindi. Ular orasida Afrosiyob, Kofirqalʼa, Qoratepa, Axsikent, Zartepa, Sherozqalʼa, Qoʻrgʻontepa va boshqa yodgorliklarga tegishli devoriy rasmlar, yogʻoch buyumlar, sopol idishlar, tangalar, temir va bronza ashyolar bor.

Qoʻrgʻontepa yodgorligida sakkiz kvadrat metr polixrom devoriy rasmlar devordan ajratilib, maxsus usulda konservatsiya qilindi. Sherozqalʼada esa 200 kvadrat metr devor yuzasi kimyoviy usullar bilan mustahkamlandi. Bu ishlar yodgorliklarni kelgusi avlodlarga yetkazish, ularni ochiq osmon ostidagi muzeylar va sayyohlik maskanlariga aylantirish uchun



muhim zamin yaratmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-avgustdagi qarori bilan muassasa Madaniy meros agentligi tizimidagi Yahyo Gʻulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti sifatida qayta tashkil etildi. Institutga respublikadagi arxeologik tadqiqotlarni ilmiy-uslubiy jihatdan muvofiqlashtirish, zamonaviy tabiiy fan usullarini joriy qilish, qadimgi tosh asridan oʻrta asrlargacha boʻlgan tarixni fundamental oʻrganish, arxeologik yodgorliklarni aniqlash va xaritaga tushirish, topilmalarni restavratsiya qilish, ochiq osmon ostidagi muzeylarni tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish kabi keng koʻlamli vazifalar yuklatildi.

2022-2025-yillar mobaynida institut tomonidan 163 ta arxeologik tadqiqot tashkil etildi. 2022-yilda 26 ta, 2023-yilda 56 ta, 2024-yilda 65 ta ruxsatnomaga asosida qazish va qidiruv ishlari amalga oshirildi. Faqat 2025-yilning may oyiga qadar 50 dan ziyod ruxsatnoma olinib, respublika hududida tadqiqotlar olib borildi. Viloyatdagi Sherozqalʼa, Qoʻrgʻontepa va Qizilartepa yodgorliklarini moddiy madaniy merosning koʻchmas mulk obyektlari milliy roʻyxatiga kiritish boʻyicha ilmiy taklif va xulosalar tayyorlandi. Bu arxeologik tadqiqot natijalarining yodgorliklarni huquqiy muhofaza-ga olish bilan bevosita bogʻlanayotganini koʻrsatadi.

2560 TA ARXEOLOGIK ASHYO NOYOB ILMIY OBYEKT SIFATIDA SAQLANMOQDA

Arxeologik topilma yerdan olinganidan keyin oddiy ashyo emas, balki davlat va xalq tarixining hujjatiga aylanadi. Shu bois institutda «Arxeologik topilmalar fondi» noyob ilmiy obyekt sifatida faoliyat yuritmoqda. Fondga 2560 ta alohida qimmatga ega arxeologik ashyo noyob ilmiy obyekt sifatida saqlanmoqda. Soʻnggi yillarda yana yuzlab topilmalar qabul qilindi, fondga mavjud 10 mingdan ortiq ashyo xatlovdan oʻtkazildi. Bu jarayonda har bir topilmaning kelib chiqishi, davri, materiali, saqlanish holati va ilmiy qiymati aniqlashtirilmoqda. Institut ilmiy kutubxonasida ibtidoiy jamiyat, antik davr va oʻrta asrlar tarixiga oid 28 mingdan ortiq kitob, davriy nashr va dissertatsiyalar saqlanadi. Ularning 20 mingdan ziyodi qayta roʻyxatdan oʻtkazilib, katalog va kartotekalar shakllantirildi. Ilmiy arxivda esa arxeologik ekspeditsiyalarning 1,5 mingga yaqin hisoboti, qazishma kundaliklari, chizmalar, negativlar va fotosuratlar mavjud.

XALQARO HAMKORLIK SAMARASI

Mustaqillik yillaridan boshlab Samarqand arxeologiya instituti AQSh, Italiya, Xitoy, Fransiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Turkiya va Rossiya ilmiy muassasalari bilan qoʻshma loyiha va ekspeditsiyalar tashkil etib kelmogda. Xususan, Koreya madaniy meros tashkilotlari bilan Samarqanddagi madaniy meros obʼektlarini rivojlantirish va ularning turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan yirik loyiha amalga oshirilyapti. Yaponiyaning Nara milliy madaniy meros instituti bilan esa «MEROS — Arxeologik meros va ilm-fan yoʻnalishidagi oʻzaro aloqadorlik» loyihasi amalga oshirildi. Institutning yosh xodimlari Yevropa va Osiyo davlatlarida arxeologik merosni muhofaza qilish, restavratsiya va dala tadqiqotlari boʻyicha malaka oshirmogda. Institut huzurida arxeologiya ixtisosligi boʻyicha ilmiy daraja beruvchi kengashning faoliyat yuritayotgani ham milliy ilmiy kadrlarni tayyorlashda muhim qadam boʻldi. Respublika oliy taʼlim muassasalari bilan imzolangan hamkorlik shartnomalari talabalar, magistrantlar va yosh tadqiqotchilarni arxeologik amaliyotlarga keng jalb qilish imkonini bermogda.

Mustaqillik bizga tariximizni oʻz koʻzimiz bilan koʻrish, oʻz manbalarimiz asosida oʻrganish va uni kelajak avlodlarga yetkazish imkonini berdi. Endigi eng muhim vazifa topilgan merosni nafaqat ilmiy jihatdan tadqiq qilish, balki uni asrash, muzeylashtirish, yoshlarga tanitish va milliy taraqqiyotning maʼnaviy asosiga aylantirishdir.

Moʻminxon SAIDOV,
Yahyo Gʻulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti direktori.



2005-YIL

MART

7-mart kuni Pokiston Islom Respublikasi Prezidenti Parvez Musharraf Samarqandga keldi.

MAY

Koreya Respublikasi Prezidenti No Mu Xyon boshchiligidagi delegatsiya Samarqandga keldi.

AVGUST

25-avgust kuni Samarqandda “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali boshlandi, unda 50 dan ortiq mamlakat vakillari qatnashdi.

2007-YIL

YANVAR

“SamAvto” masʼuliyati cheklangan jamiyati Yaponiyaning “Isuzu Motors Limited” kompaniyasi bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻydi.

AVGUST

25-avgust kuni Registon maydonida Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyi va “Sharq taronalari” oltinchi xalqaro musiqa festivalining ochilish marosimi oʻtkazildi.

2008-YIL

IYUN

Bulungʻur tumanida ikki ming juft rezina poyabzal ishlab chiqarish quvvatiga ega “Bulungʻur interligo” korxonasi ish boshladi.

2009-YIL

MART

YUNESKO Butunjahon merosi markazi direktori Franchesko Bandarin boshchiligidagi delegatsiya Samarqandda boʻldi.

MAY

12-may kuni Koreya Respublikasi Prezidenti Li Myon Bak Samarqandga keldi.

SENTABR

Samarqanddagi “JV-MAN Auto-Uzbekistan” qoʻshma korxonasida “MAN” yuk avtomashinalari ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyildi.

Samarqand avtomobil zavodida “SamAuto LE 60” avtobusining namunasi ishlab chiqarildi.

DEKABR

Samarqand shahridagi “Sino” ochiq aksiyadorlik jamiyatida Koreyaning “LG” brendi ostida sovutkichlar ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyildi.

2010-YIL

OKTABR

8-9-oktabr kunlari Samarqand shahrida BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti “Buyuk ipak yoʻli” loyihasining ishtirokchi mamlakatlari vakillarining navbatdagi yigʻilishi oʻtkazildi.

Bizning suhbat

Yurtimizda ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun xorijiy tajribalar o'rganilyapti, milliyligimiz va qadriyatlarimizga mos bo'lganlari hayotga joriy etilyapti. Shuningdek, pedagoglarning malakasini oshirish tizimi ham isloh qilinib, yangicha metodlardan foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Xo'sh, malaka oshirish tizimida qanday xorijiy tajribalar qo'llanilyapti? Shu va boshqa masalalar yuzasidan viloyat Pedagogik mahorat markazi direktori Anvar Sobirov bilan suhbatlashdik.



- Respublikamizda o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, pedagogik kasbiy faoliyati ustida muntazam ishlashini ta'minlash maqsadida Prezidentimizning 2024-yil 21-iyunda qabul qilingan

MALAKA OSHIRISH
TIZIMI O'ZINI
OQLAYAPTIMI?

pedagoglar uchun kitobxonlik tanlovi, turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, musobaqalar tashkil qilinadi. Shunga qaramay nojo'ya xatti-harakatlar qilayotgan o'qituvchilar afsuski, uchrab turibdi.

- **Avvallari malaka oshirishga kelgan pedagoglar korrupsion holatlardan nolirdi. Masalan, o'qituvchining kitobini malakaga kelgan tinglovchilarga sotishi, har xil narsalarga pul yig'ish kabilar kuzatildi. Bugun qanday?**

- Korrupsiya har qanday rivojlanishga to'siq bo'ladigan illat. Markazimizda kitob sotish yoki turli masalalar bo'yicha pul yig'ish, sertifikatni sotib olish yoki tinglovchilar tomonidan loyiha ishini himoya qilishda ta'magirik holatlariga barham berilgan. Tinglovchilar tomonidan o'qituvchilarga sovg'a-salom berish holatlarini ham butkul to'xtatdik. Markazimiz to'liq kamerashtirilgan va doimiy ravishda nazoratda.

- **Malaka oshirishga kelgan pedagog malaka imtihonidan o'tolmasa, u o'z kasbida ishlay oladimi?**

- Pedagog malakaviy imtihon, ya'ni test jarayonidan o'tolmasa, unga ikkinchi imkoniyat beriladi. Faqat bunda pedagog o'z hisobidan kelib o'qiydi, ya'ni maktabdagi maoshi saqlanmaydi. Ikkinchi marta ham u malaka oshirish imtihonidan o'tolmasa, qonunchilikka ko'ra u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinadi. Hozircha bizda bunday holatlar kuzatilmadi, birinchi malaka imtihonidan o'tolmagan pedagoglar ikkinchisidan o'tiyapti.

Malaka oshirishga kelganlar 18 soatdan ko'p dars qoldirsa, tinglovchilar safidan chetlatiladi. Masalan, 2026-yilning birinchi choragida 242 nafar tinglovchi 18 soatdan ziyod dars qoldirgani uchun tinglovchilar safidan chetlatildi.

- **Markazda qayta tayyorlov kursiga talab qanday?**

- Qayta tayyorlov kursiga oliy ta'lim muassasasi-ni tugatgan, ammo o'z sohasida ishlay olmayotgan yoki ish topolmayotganlar qabul qilinadi. Ayni paytda markazimizda 10 ta guruh, sakkizta fan yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlov kursida o'qimoqda. Yana ochilishi rejalashtirilayotgan beshta guruh bor. Yaqinda ularning ham o'qishi boshlanadi.

2025-yilning sentabridan boshlab talab qayta tayyorlov maxsus platformasi ishga tushdi, ya'ni bu tizim raqamlashti. Platformaga talabgor diplomini kiritadi. Pedagog o'sha diplom qaysi tayyorlov guruhlariga to'g'ri kelishini aniqlab beradi, ya'ni talabgor yo'nalishi to'g'ri kelmagan guruhlarda o'qiy olmaydi. Talabgorning kontrakt to'lovi ham platforma orqali qabul qilinadi, diplom ham platforma orqali shakllanadi. Qayta tayyorlovda bitta guruh shakllanishi uchun kamida 25 nafar talabgor ariza berishi kerak. Guruh to'lsagina qayta tayyorlov guruhlarini ocha olamiz.

Qayta tayyorlovning uch xil darajasi bor: kasbiy qayta tayyorlov, pedagogik qayta tayyorlov va pedagogik kasbiy qayta tayyorlov. Biri 5 oylik, ikkinchisi 7 oylik, uchinchisi 10 oylik kurslardan iborat. Nopedagog hisoblanganlarni o'n oy o'qitamiz. Masalan, qishloq xo'jaligining veterinariya yo'nalishini tugatgan talabgor biologiya yo'nalishida o'qishni istasa, uni ham pedagogik, ham kasbiy qayta tayyorlaymiz. Agar fransuz tili yo'nalishida o'qigan talabgor ingliz tilida qayta tayyorlovda o'qimoqchi bo'lsa (u institutda ikkinchi til sifatida ingliz tilini ham o'qigan), uni besh oy ichida qayta tayyorlovdan o'tkazib, ingliz tili mutaxassisi, degan diplom beramiz.

- **Pedagogik mahorat markazida o'qituvchilar uchun qanday shart-sharoitlar yaratilgan?**

- Markazimizda 220 o'rinni yotoqxonamiz, 200 o'rinni kutubxonamiz bor. Unda yashash uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Hovlimiz shahar markazida joylashgan bo'lib, manzarali daraxtlar bilan bo'rkangan. Ayniqsa, archa daraxtlari juda ko'p, shuning uchun hududning havosi toza. Markaz tinglovchilari uchun to'rtta oshxona xizmat ko'rsatadi. Bir vaqtning o'zida markazimizda 1400-1500 nafar pedagog malaka oshiradi. Ularning ko'pchiligi oilaviy sharoitidan kelib chiqib, qatnab o'qiydi. Shu sababli yotoqxonamizdagi o'rinlar hozircha tinglovchilarga yetarli.

- **Malaka oshirish tizimini yana qanday takomillashtirish kerak deb o'ylaysiz?**

- Markazga har bir fandan o'z ustida doimiy ishlaydigan mutaxassislarni jalb etish kerak. Bugun aksariyat shunday mutaxassislarning ishlashyapti. Ikkinchidan, malaka oshirish markazlariga mustaqil tadqiqotchilik institutini berish kerak. Ular ish faoliyatidan tashqari ilmiy tadqiqot bilan, aynan metodikalar bilan shug'ullanishi lozim. Masalan, xohlagan pedagogik mahorat markazini olib ko'rsangiz, bir nafar ilmiy darajaga ega metodist ishlaydi yoki o'q.

- **Mazmunli suhbatigiz uchun tashakkur. Xurshida ERNAZAROVA suhbatlashdi.**

Alohida
ta'limehtiyotlari bo'lgan
bolalarga yangicha
ta'lim tizimijoriy
etilmoqda

Qarorga ko'ra, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida Toshkent shahrida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi Ko'p funksional inklyuziv-resurs markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda bittadan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab yoki maktab-internatlar negizida ko'p funksional inklyuziv-resurs maktablari tashkiloti etish belgilandi.

Inklyuziv maktablar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning imkoniyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda o'qitadi va kasbga o'rgatadi, ularni inklyuziv ta'lim muhitiga tayyorlab beradi.

2027-2028-o'quv yilidan boshlab hududlarda bosqichma-bosqich inklyuziv maktablar faoliyati yo'lga qo'yiladi. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining 2026-yil 17-iyunda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab yoki maktab-internatlar faoliyati samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi buyrug'i tasdiqlandi.

Unga ko'ra, respublikada 14 ta ko'p tarmoqli maktab-internat tashkil etiladigan bo'ldi. Shuningdek, viloyatimizda bunday maktab Samarqand shahridagi 59-ko'zi o'z bolalar uchun ixtisoslashtirilgan "Nurli maskan" maktab-internati negizida bo'lib, uning nomi Samarqand shahridagi 8-ko'p tarmoqli maktab-internatiga o'zgartirildi.

- Maktab-internatimiz endi faqat ko'zi o'z bolalar uchun mo'ljallanmaydi, aksincha, turli nogironligi bor bolalarni aralash o'qitamiz, - deydi Samarqand shahridagi 59-ko'zi o'z bolalar uchun ixtisoslashtirilgan "Nurli maskan" maktab-internati direktori Abdulhalim Meliyev. - Shu maqsadda maktabimiz ko'p tarmoqli maktab-internati deb atalyapti.

Shu paytgacha nogironligi bor bolalar shaharda ota-onasi, yaqinlari, mahallasidan uzoqda o'qishgan va yashashgan. Ular

17 yoshga to'lgach, ya'ni maktabni bitirgach, oilasiga qaytadi va begona muhitga moslasha olmaydi. Davlatimiz alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ota-onasi bag'rida ulg'ayishi uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham inklyuziv sinflar ochishni rejalashtiryapti. Bu bosqich birdaniga bo'lmaydi, yildan yilga asta-sekin shakllanadi. Hozircha biz ko'zi o'z bolalarni maktab-internatimizga to'liq qabul qilamiz. Sababi, oddiy maktablarda bunday o'quvchilarni o'qitishga sharoit yo'q. Shuningdek, boshqa kasallik sabab nogironligini bo'lgan shahar bolalarini ham o'qishga qabul qilamiz. Maktab-internatimiz sig'imi 300 nafar bolaga mo'ljallangan bo'lib, hozircha 250 nafar bola ta'lim olmoqda.

Bundan tashqari, respublikada to'rtta ko'p funksional inklyuziv-resurs maktabi tashkil etilgan. Hozircha bitta maktab tashkil etiladi. Ulardan biri Samarqand shahridagi 60-ko'zi o'z bolalar uchun ixtisoslashtirilgan "Nurli maskan" maktab-internatida ochiladi.

- Maktab-internatimiz ko'p funksional inklyuziv-resurs maktab bo'lyapti, - deydi mazkur maktab-internat direktori Farangiz Shokirova. - Endi maktabimizga turli nogironligi bo'lgan bolalarni qabul qilamiz va 1-4-sinf-gacha inklyuziv sinflar tashkil etamiz. Inklyuziv sinflarda 25 nafar sog'lom va 5 nafar nogiron bola o'qiydi. Nogiron bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish uchun ularni sog'lom bolalar bilan birga o'qitamiz. 5-sinfdan sog'lom bolalar umumta'lim maktablariga ketadi. 5-sinfdan 11-sinf-gacha faqat nogironligi bo'lgan bolalarni olib qolamiz. O'z o'rinarini topishi uchun ularga ta'lim bilan birga kasb-hunar o'rgatamiz. Bizda milliy hunarmandchilik, IT sohasi kabi 12 xil kasb-hunarga o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Inklyuziv maktabimizga asosan Samarqand shahrida yashovchi yoki yaqin hududda istiqomat qiluvchi, kunduzi darsga qatnay olishga sharoiti bor bolalarni qabul qilamiz.

Shu paytgacha shaharda ko'zi ojizlar, kar va zaif eshituvchilar, aqli zaiflar uchun alohida maktab-internatlar faoliyat yuritib keldi. Endi ular qisqaradi, ya'ni har bir tumanda 4-5 ta maktab uchun bitta inklyuziv sinflar tashkil etiladi. Nogironligi bor bolalar ota-onasi bag'rida o'zi istiqomat qiladigan hududga yaqin inklyuziv maktabda o'qiydi. Tumanlardan kelib o'qiydigan bolalarning ota-onalarini bu haqda xabardor qilganmiz. Yangi o'quv yilidan ular o'z hududlaridagi inklyuziv maktablarga bolalarini beradi.

X.ERGASHEVA.

tizim
qay-
sidir
ma'no-
da o'zini
oqla-
madi.2025-yil-
ning yan-
varidan
boshlab
5 yilda
bir
marta
bir oy-
lik, ya'ni
100
soatlik
malaka
oshirish
tizimi
yo'lga
qo'yildi.Bunda
peda-
goglar
asosiy
ish
joyidan
ajralgan
va ish
haqi
saqlangan
holda
malaka
oshi-
rishga
jalb
qilinadi."Kasbiy
rivojlanish
kuni",
"Kasbiy
rivojlanish
soati"
tadbirlari
aynan
Singapur
ta'lim
tizimi
asosida
malaka
oshirishga
olib
kirildi.Dastlab
Abdulla
Avloniy
nomidagi
Pedagogik
mahorat
milliy
instituti
va barcha
viloyatlardagi
pedagogik
mahorat
markazlaridan
meto-
dist,
master-
trenoerlar
tanlab
olindi.Ularga
singapurlik
muta-
xassislar
o'z ustida
ishlash
uchun
kerak
bo'lgan
yo'nalish,
meto-
dikasi
o'rgatdi.2025-2026-o'quv
yilidan
boshlab
11 ta
fan yo'nalishi
bo'yicha
pedagoglar
uchun
"Kasbiy
rivojlanish
kuni",
"Kasbiy
rivojlanish
soati"
tadbirlari
respublikamizdagi
barcha
maktablarga
joriy
qilindi.O'qituvchilar
uchun
haftada
bir kun
metod
kuni
bor.
Shu
kuni
maktablardan
tanlangan
mentor
o'qituvchilar
o'sha
hududdagi
yetakchi
o'qituvchilarga
yangi
metodlar,
fanda
olib
borilayotgan
yangiliklar,
o'zlashtirilishi
qiyin
bo'lgan
mavzular
ustida
ishladi.Bulardan
tashqari,
malaka
oshirish
tizimi-
ga
Finlandiya,
Angliya,
Xitoy,
Fransiya,
Turkiya
davlatidan
mutaxassislarni
jalb
qilindi.
Ular
pedagogik
mahorat
markazi
o'qituvchilarni
metodik
ta'minlash,
ularga
yangi
metod,
usullar
o'rgatish
maqsadida
taklif
etildi.
Shu
nagra
meto-
dist,
mentor
o'qituvchilarni
ushbu
davlatlarda
malaka
oshirish
keldi.
Hatto
maktablardan
tanlab
olingan
mentor
o'qituvchilar
ham
xorijga
malaka
oshirishga
yuborildi.O'zim
ham
Xitoyning
UNESKO
ta'lim
markazi
va
Shanxay
Normal
universiteti
bilan
hamkorlik-

Viloyatimizda 500 ming gektarlik Qarnabchoʻlning mavjudligi yaylov chorvachiligi, xususan, qorakoʻlchilikni rivojlantirish imkonini beradi. Qarnabchoʻl yaylovlari asosan shuvoq-barra oʻtli oʻsimliklardan iborat boʻlib, koʻp yillik tadqiqotlar natijasida oʻrtacha hosildorligi 3,3-5 sentnerni tashkil qiladi. Demak, Qarnabchoʻl yaylovlaridan bir yilda 150-175 ming tonna ozuqa olinadi. Ushbu hajmdagi yaylov ozuqasi bilan 188-219 ming bosh qorakoʻl qoʻylarini yil boʻyi boqish mumkin (bir bosh qorakoʻl qoʻyi uchun bir yilda 800-900 kilogramm yaylov ozuqasi talab etiladi). Bu natijaga yaylovlardan faqatgina oqilona foydalanish, yaʼni, qatʼiy mavsumiy foydalanish tizimini joriy qilish va ozuqa zaxirasining faqat 70-75 foizini yedirish orqali erishish mumkin.

Nurobod tumani qorakoʻlchilik yaylovlarining hozirgi holati sohani barqaror rivojlantirish talablariga javob bermaydi. Yaylovlar monitoringi boʻyicha olib borilayotgan tadqiqotlar natijalariga koʻra, Qarnabchoʻl yaylovlarining 60-65 foizi kuchli inqirozga uchragan. Asosiy ozuqabop oʻsimlik boʻlgan shuvoq oʻrmini isiriq, qirqasoch singari yeyilmaydigan oʻsimliklar egallamoqda. Yaylovlar ozuqasining 35-40 foizi barra oʻtlardan tashkil topadi. Demak, yaylovlar hosildorligi 60-65 foizga (shuvoq hisobiga) pasaygan. Shu bois, qurgʻoqchil kelgan yillarda tumandagi barcha qorakoʻlchilik xoʻjaliklari boshqa uzoq hududlarga oʻtovga koʻchishga majbur boʻladi. Bu holat ham soha samaradorligiga katta zarar keltiradi. Masalan, xoʻjaliklarda hozirgi kunda olinayotgan daromadlarning 52 foizidan 78 foizigacha chorva uchun yem-xashak sotib olishga sarflanmoqda. Vaholanki, 90 foiz yaylovda oziqlantirilgandagina qorakoʻlchilikda yuqori samadorlikka erishish mumkin. Tumanda yaylovlardan uzluksiz, pala-partish va qoʻy sigʻimiga mutlaqo rioya qilmasdan foydalanib kelinmoqda. Mavjud fermer xoʻjaliklari (82 ta) uchun ajratilgan yaylov maydonlari ham talab darajasida emas. Meʼyor boʻyicha har bir bosh qorakoʻl qoʻyiga 3 gektar yaylov ajratish zarur. Fermer xoʻjaliklariga tegishli qorakoʻl qoʻylari soni 38 ming boshni tashkil qilgan holda, ularga ajratilgan yaylovlar maydoni 14 200 gektarni tashkil qiladi. Yaʼni, 1 bosh qoʻyga 0,37 gektar yaylov toʻgʻri keladi. Bu yaylovlarga boʻlgan bosim meʼyoridan bir necha marotaba yuqori ekanligini koʻrsatmoqda. Ushbu holat ham yaylov inqirozini yuzaga keltiruvchi asosiy omildir. Tumandagi qorakoʻlchilikka ixtisoslashgan 8 ta xoʻjalikda hozirgi kunda 75 500 bosh qorakoʻl qoʻylari bor. Xoʻjaliklarning qaramogʻidagi yaylovlar maydoni esa 201797 gektarni tashkil qiladi. Yaʼni, 1 bosh qoʻyga 2,6 ga yaylov toʻgʻri keladi. Ammo, xoʻjaliklardagi choʻpon brigadirilarining shaxsiy qoʻylari ham shu yaylovlarda boqilmoqda va ular ham yaylovlarga boʻlayotgan bosimni kuchaytiruvchi kuchli omil hisoblanadi.

Ushbu toifaga kiruvchi qoʻylarning bosh soni aniq emas. Ammo har bir choʻponning oʻrtacha shaxsiy qoʻylari sonini 500 boshligini hisobga olsak, xoʻjaliklardagi choʻponlarga tegishli chorva hayvonlari bosh soni xoʻjaliklarga tegishli qoʻylar bosh sonidan ancha koʻpligi ayon boʻlmoqda.

Hozirgi kunda choʻl hududida yashovchi mahalliy aholi qaramogʻidagi chorva hayvonlari soni ham ortib bormoqda. Lekin shaxsiy hayvon-

Yaylov inqirozini qanday yengish mumkin?



lar bosh soni toʻgʻrisida aniq maʼlumot mavjud emas. Statistik maʼlumotlar boʻyicha aholi qaramogʻida 409 ming bosh mayda shoxli hayvonlar mavjud.

Bundan tashqari, Samarqand, Past Dargʻom, Narpay tumanlari aholisining qoʻylari ham Qarnabchoʻlida boqiladi. Ammo bu tumanlardan kirib keldigan qoʻy va echkilar soni maʼlum emas. Shunday qilib, Nurobod tumani yaylovlari jami boʻlib, 514 500 bosh chorva boqilayotgan boʻlib, har bir boshga 1 gektar atrofida, yaʼni, yaylov ozuqasiga boʻlgan talabning 33 foizini qondiryapti. Demak, hozirgi kunda Qarnabchoʻl yaylovlari boqilayotgan chorva hayvonlari soni meʼyori koʻrsatkichlardan 3-4 marotaba ortiq boʻlganligi sababli yaylov inqirozi jadallashib bormoqda.

Shu bois, Nurobod tumani qorakoʻlchilik yaylovlari fitomeliorsiyalash orqali mahsuldorligini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Yaylovlarni fitomeliorsiyalash chora-tadbirlarini amalga oshirish esa oʻz navbatida ozuqabop oʻsimlik turlarining urugʻchiligi yoʻlga qoʻyish va talab darajasida sifatli urugʻlar yetishtirishni taqozo etadi.

Fikrimizcha, viloyatimiz sharoitida choʻlida ozuqa ishlab chiqarishni intensivlashtirish eng oqilona yoʻl boʻladi. Bunda "Olgʻa" MChJda olib borilayotgan ishlarni barcha chorvachilik subʼektlarida keng joriy qilish oʻrinli. Yaʼni, har bir otarda, agarda 500 bosh mayda shoxli mol boqilayotgan boʻlsa, 20 gektardan iborat koʻp komponentli, hosildorligi gektariga 20-25 sentner boʻladigan yaylov agrofittosenozlarini barpo qilishga erishish lozim. Agrofittosenozlar tarkibi 20 foiz saksovidan, 20 foiz cherkezdan, 40 foiz yarim butalardan (izen, choʻgʻon, quyrovuq, shuvoq, olabuta) va 20 foiz koʻp yillik oʻtchil turlardan (qoʻngʻirbosh, erkak oʻt, kovrak) iborat boʻlishi lozim. Barpo qilingan agrofittosenozlardan foydalanish oʻsimliklar voyaga yetgan davrdan boshlanadi. Shu bois, barpo etiladigan agrofittosenoz atrofi tikanli sim yoki metall toʻrlar bilan oʻralishi zarur. Agrofittosenozdan kuzda urugʻlar yigʻib olingach, kuz va qish mavsumlarida yaylov sifatida foydalaniladi. Bu faoliyat xoʻjalikda yuqori hosilli yaylovlar maydonini bosqichma-bosqich kengaytirib borish imkonini ham yaratadi. Shundaygina, kuz va qish mavsumida foydalanib kelinayotgan yaylov maydonlariga dam berish, shuningdek, yaylovlardan mavsumiy foydalanish tizimini joylarda tashkil etish imkoni tugʻiladi.

Qorakoʻlchilik va choʻl ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan choʻl ozuqabop oʻsimlik turlarining 15 dan ortiq istiqbolli mahalliy navlari aynan Qarnabchoʻlning tuproq-iqlim sharoitida

yaratilgan va Davlat reestriga kiritilgan. Jumladan, qora saksovulning "Nortuya", Izenning "Otavniy", Quyrovuqning "Perveney Karnaba", Tereskenning "Toʻlqin", Choʻgʻonning "Jayxun" navlari bunga misol boʻladi.

Taklif etilayotgan ushbu navlarning urugʻini yetishtirish viloyatning oʻzida yoʻlga qoʻyilgan boʻlib, Qorakoʻlchilik va choʻl ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining birlamchi urugʻchilik maydonlaridan yiliga 5-6 tonna, "Olgʻa" MChJ da 10-12 tonna, "Qorakoʻl oltin moʻyna" MChJ da 20-25 tonna urugʻ yigʻib olish imkoniyati mavjud. Yigʻib olingan urugʻlar hisobiga yiliga 2900-3500 gektar yaylov agrofittosenozlarini barpo qilish imkonini beradi.

Agarda xoʻjaliklarda otarlar yonida agrofittosenozlar barpo qilish ishlari yoʻlga qoʻyilsa, har bir xoʻjalikda urugʻ yetishtirish ishlari yoʻlga qoʻyish imkoni tugʻiladi. Qorakoʻlchilik va choʻl ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining "Qarnab" birlamchi urugʻchilik ekinzorlarini toʻliq 100 gektarga kengaytirish orqali yetishtirilayotgan urugʻlar hajmi va turini ikki marotaba oshirish imkonini yaratadi. Xoʻjaliklarda agrofittosenozlar barpo qilishda yerga ishlov berish, zarur urugʻlarni sotib olish va ekish xarajatlari oʻz mablagʻlari hisobidan amalga oshirishlari mumkin.

Hozirgi kunda yaylov chorvachiligi bilan shugʻullanadigan barcha xoʻjaliklarda yaylov oʻsimliklarining biologiyasi, koʻpayish usullari, yaylovlardan meʼyorida foydalanish, choʻl ozuqabop oʻsimliklarini koʻpaytirish agroteknologiyalari dan oz boʻlsa-da, xabardor boʻlgan mutaxassislar faoliyati yoʻlga qoʻyilmagan va bunday mutaxassislar hech yerda tayyorlanmaydi. Bunday mutaxassislarning faoliyatidagi yaylovlardan oqilona foydalanib boʻlmaydi. Bir soʻz bilan aytganda, yaylovga oʻta zarur boʻlgan xizmat koʻrsatish faoliyatini yoʻlga qoʻyish zarur. Buning uchun Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va bioteknologiyalar universiteti yem-xashak yetishtirish kafedrasida yaylovshunos-agronom mutaxassislarini tayyorlashni yoʻlga qoʻyish, shu mutaxassislik boʻyicha magistraturaga maqsadli kvotalar ajratish muhim.

Yaylov chorvachiligiga ixtisoslashgan barcha xoʻjaliklar strukturasida yaylovlarga xizmat koʻrsatuvchi maxsus brigadalar faoliyatini yoʻlga qoʻyish maqsadga muvofiq boʻladi. Bunday brigadalar xoʻjalik yaylovlari holatini doimo nazorat qilib boradi. Degradatsiya jarayoni boshlanayotgan yaylov maydonlarini aniqlab, ularga dam berish ishlarini nazorat qiladi. Qimmatli ozuqabop mahalliy bir yillik oʻsimlik turlari urugʻlarini yigʻish va kam hosilli yaylov maydonlariga sepih, inqirozga uchragan yaylov maydonlarida yuqori hosilli yaylov agrofittosenozlarini barpo qiladi. Mahalliy sharoitlarda oʻsishga yaxshi moslashgan ozuqabop turlar urugʻchilik maydonlarini barpo qilish va xoʻjalikning oʻzida urugʻ yetishtirish ishlarini olib borishlari orqali yaylov xoʻjaligining rivojlanishini taʼminlashga koʻmaklashadi.

A. RABBIMOV,
Qorakoʻlchilik va choʻl ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti boʻlim mudiri, qishloq xoʻjalik fanlari doktori, professor.
G. HAMRAYEVA,
qishloq xoʻjalik fanlari doktori.

Spirтли ichimlikni muttasil ichish nafaqat inson organizmiga balki ongiga ham salbiy taʼsir qiladi. Buning ortidan kelgan noxushliklar haqida takror-takror aytilgan, qoralangan. Ammo ayrimlar uchun toʻy-hasham, gap-gashtak kabi tadbirlar spirtli ichimliklarsiz oʻtmaydi.

ARAVACHADAGI MURDA

Samarqand shahrida yashovchi Shirina Omonova (ism-familiyalar oʻzgartirilgan) va Oʻtkir Narimonovning mast holatdagi tortishuvi yaxshilik bilan tugamadi.

Ular rasmiy nikohsiz Shirinaning uyida, uning onasi, akasi va voyaga yetmagan jiyani bilan birga yashaydi. Oʻtkir va Shirina yosh emas, hayotning koʻp past-balandini, achchiq-chuchuguni tatib koʻrgan. Ammo tayinli ishi yoʻq, kunlik mehnat qilib, topganini yeb-ichib yuraveradi.

Yoz fasli, avgust oyining oxirlari edi. Tushlik payti ularning Erkin Ortiqov mehmon boʻlib keldi. Erkin meva-cheva bilan birga bir shisha aroq ham olib kelgan ekan. Shirina tezda hovlidagi daraxt soyasiga joy qildi. Ovqat tayyorladi. Uchovi oʻtirib ovqatlanishdi, shishani boʻshatishdi. Ichkilik taʼsirida ancha mast boʻlib qolishdi. Shirina oshxona tomondan sabzavot toʻgʻrayotgandi. Oʻtkir dasturxon boshiga kelgan tovuqni haydab, unga qarata pichoq otib yubordi. Bu holatdan Shirinaning jahli chiqib eriga qarab baqirdi. Shu payt sarxush Erkin ham Shirinani haqoratlab baqirdi. Jahli chiqqan Shirina

gʻazab bilan kelib, qoʻlidagi pichoqni pochchasining boʻyniga sanchib oldi. Ayol pochchasining koʻzlari koʻr, qolaversa, mast ekanligini, qarshilik qilishga oqizligini bilgan holda unga qasddan pichoq sanchdi. Erkin oʻtirgan joyida yiqildi, koʻp qon yoʻqotib vafot etdi.

Er-xotin bu haqda hech kimga xabar bermadi. Ertasi kuni ertalab Erkinning jonsiz tanasini bolalar aravachasiga ortib, qabriston tomon ketayotganda ular "bakalajka" deydishi. Ammo ularning oʻzini tutishi raisni shubhalantirdi va u aravachani koʻrmoqchi boʻldi. Shunda Oʻtkir bilan Shirina aravachani yoʻl chetida qoldirib qochib qolishdi. Ular Sartepa maskaniga borib, qoʻp qavatli uyning yertoʻlasiga yashirindi.

Er-xotin bu yerda koʻp qolmadi. Ertasi kuniyoq IIB xodimlari tomonidan ushlandi.

Jinoyatga jazo muqarrar, sud Shirinaga 13 yil, Oʻtkirga esa 2 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinladi.

Bekzod PARPIYEV,
Bosh prokuratura boshqarma prokurori.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

1-AVGUST

Zaynab HAYDAROVA – 1951-yilda Narpay tumanida tugʻilgan. Fermer. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan paxtakor, «Doʻstlik» ordeni sohibi.

2-AVGUST

Abdurauf BOLTAYEV – (1909-1978) - Kattaqoʻrgʻon shahrida tugʻilgan. Oʻzbekiston xalq artisti.

6-AVGUST

Tohir NORQULOV – (1946-2023) - Narpay tumanida tugʻilgan. Fotojurnalist, Oʻzbekiston jurnalistlar uyushmasi aʼzosi.
Doʻstmurod ABDULLAYEV – 1950-yilda Paxtach tumanida tugʻilgan. Oʻzbekiston Qahramoni.

8-AVGUST

Saydulla MIRZAYEV – (1930-2012) – Paxtachi tumanida tugʻilgan. Adabiyotshunos olim. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi.

Taʼnaberdi QURBONOV – (1935-2015) – Past Dargʻom tumanida tugʻilgan. Oʻzbekiston xalq artisti.

9-AVGUST

Narziqul SHODIYEV – 1937-yilda Urgut tumanida tugʻilgan. Pedagogika fanlari doktori.

REKLAMA, EʼLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va eʼlonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DAʼVOLAR BOʻLSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasida marhum Uzakov Arifdjanga (2021-yil 19-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohkoʻchasi, 157-“B” uy. Moʻljali: Samarqand viloyat IIB YHXB, shahar mudofaa ishlari boʻlimi.

Kattaqoʻrgʻon shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Botirov Ozod Komiljonovich notarial idorasida marhum Zaripov Raxmatullaga (2000-yil 4-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Botirov Ozod Komiljonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Kattaqoʻrgʻon shahri Alisher Navoiy koʻchasi, 148-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Raxmatov Aslidin Shukurovichga (2025-yil 22-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy koʻchasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial

idorasida marhum Davronov Suponga (2007-yil 2-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulugʻbek koʻchasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Oripov Nosirga (2018-yil 27-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin koʻchasi, 121-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Joʻrayev Mubin Neʼmatjonovich notarial idorasida marhum Nabiyeva Muqadamga (2006-yil 2-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Joʻrayev Mubin Neʼmatjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Soniy koʻchasi, 1-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Ashirova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Chuliyev Qobilga (2024-yil 30-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Ashirova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol koʻchasi, 110-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Joʻraqulovich notarial idorasida marhum Nasirullayev Musirmonga (2024-yil 2-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Muhammadiyev Farhod Joʻraqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol koʻchasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Quralov Shuhrat Sharifovichga (2025-yil 3-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol koʻchasi, 73-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Ruziyev Kamal Gafarovichga (2021-yil 31-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy koʻchasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek

Bolbekovich notarial idorasida marhum Abdullayeva Minaraga (2025-yil 19-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy koʻchasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Saʼdullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Karimov Ravshan Turdiqulovichga (2019-yil 21-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Saʼdullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Karimov Ravshan Turdiqulovichga (2019-yil 21-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Saʼdullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur koʻchasi.

Past Dargʻom tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasida marhum Olmasov Erkin Raxmatovichga (2025-yil 9-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Past Dargʻom tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim koʻchasi.



Vijdoningiz oldida javob bera olasizmi?

E’tibor berganmisiz, haddidan oshgan yoki biror ishni ko’ngildagidek bajarmagan, bironing haqiga xiyonat qilgan kishilarga “vijdoningiz bormi”, “vijdonsiz ekansiz” deb tanbeh beriladi.

XO‘SH, VIJDON NIMA O‘ZI?
Vijdon — insonning ichki axloqiy hissi, yaxshilik va yomonlikni ajrata bilish qobiliyati. Vijdon insonni halollik, adolat va insofga chorlaydi. U odamga o‘z xatti-harakatlarini baholashga, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ish qilganini his qilishga yordam beradi. Bir so‘z bilan ifodalaganda, vijdon — insonning “ichki ovozi”.
Lekin ana shu “ichki ovozi”ingiz sezilmay qolganda, axloq tushunchalaridan yiroq bo‘lganingizda “vijdoningiz bormi o‘zi?” degan dakk, e’tiroz eshitingingiz mumkin. Chunki har qanday vazifani bajarishda vijdon ustuvor bo‘lishi juda muhim. Vijdon bilan qilingan ishda aldash, beparvolik yoki manfaatparastlikka o‘rin bo‘lmaydi. Bunday inson o‘z vazifasini nafaqat majburiyat sifatida, balki insoniy burch deb biladi.
Ayniqsa, ko‘pchilik bilan ishlaydigan, odamlarning nazaridagi

kasb egalari uchun vijdon katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi, shifokor, rahbar yoki oddiy ishchi bo‘lishidan qat’i nazar, har kim o‘z vazifasini vijdon bilan bajarsa, avvalo o‘z jamoasida, qolaversa, jamiyatda unga nisbatan ishonch va hurmat ortadi. Vijdonsiz bajarilgan ish, xatti-harakat esa xatolarga, adolatsizlikka va odamlarda norozilikka sabab bo‘ladi.
Avtallari bunday holatlar asosan, bir jamoa ichida yoki faqatgina rahbar va xodimlar o‘rtasida ma’lum bo‘lib, bundan yaqinlaringiz boxabar bo‘lmasdi. Yoki oilangizdagi gap-so‘z uyinigizdan chiqmasdi. Va bu ko‘ngilsiz holatlar biroz vaqtdan so‘ng unutilardi. Bugun esa vaziyat butunlay o‘zgargan. Oddiy bir xato yoki noo‘rin xatti-harakat bir zumda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng doiraga tarqalib ketishi, bundan boshqalar, yaqinlaringiz

Mulohaza uchun mavzu

ham xabardor bo‘lishi mumkin. Albatta, bu inson ruhياتiga kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatadi, hatto, fojiali oqibatlariga ham olib keladi. Bunga ham tez-tez guvoh bo‘lib turibmiz.
Ammo, masalaning ayanchli tomoni, odamlarning bunday holatlarga ko‘nikib qolayotgani, vijdoni og‘rimayotgani, uyat, andisha degan tushunchalarning yo‘qolib borayotganida. Bu hislar yo‘qolgan odamga vijdon, diyonat haqida gapirish esa ortiqcha.
Yaqinda viloyat darajasidagi yig‘ilishda rahbar quyi tizimdagi mas’uldan topshiriqlar ijrosini so‘rab, “uchinchi marta sizdan bu masala ijrosini so‘rayapman, lekin yana turli bahonalar bilan vaziyatdan chiqishga urinyapsiz, o‘tgan safar intizomiy chora ham olgandigiz, hech vijdoningiz og‘riydimi o‘zi?” dedi kuyinib. Mas’ul esa “e’tiborsizlik qilibman, uzr, ikki kun muhlat bering, to‘liq bajaraman” deb va‘da berdi.
Avvalo, rahbardan mana shu gapni eshitishning o‘zi quyi tizim mutasaddisi uchun yarashmaydigan holat. Topshiriq vakolat doirasida berilgan bo‘lsa, uni vaqtida, sifatli bajarish uchun nima xalaqit qilgan mas’ulga? Agar biror muammo bo‘lsa, buni topshiriq berilgan rahbariyatga yetkazib, muddat yoki yordam so‘rash mumkin-ku?
Ikkinchidan, agarkin mas’ul qayta-qayta so‘rovda ham bajarmagan yumushini endi ikki kun ichida hal qiladigan bo‘lsa, nega uni shu paytgacha bajarmadi? Nima, bu — vijdon azobimi yoki vazifasidan ayrilib qolishdan qo‘rquvmi?
Nazariyda, ikkinchisi haqiqatga yaqinroq. Berilgan vazifaga vijdonan yondoshganida, u topshiriqni allaqachon bajarib qo‘ygan

bo‘lardi.
O‘tgan hafta Samarqand shahrida viloyat hokimi boshchiligidagi bir qator boshqarma va idoralar, tuman va shaharlar hokimlari ishtirokida aholi uchun sayyor qabul o‘tkazildi. Qariyb yetti soat davom etgan qabulda fuqarolardan 700 dan ortiq murojaat qabul qilindi. Viloyat hokimi va boshqa rahbarlarga aytilgan masalalar orasida quyi bo‘g‘inda hal etilishi mumkin bo‘lgan murojaatlar ham ko‘p edi. Shuning uchun ushbu murojaatlarni o‘rganish topshirilgan tegishli idoralar mas’ullari shu yerning o‘zida muammo hal etilgani haqida hisobot ham berishdi. Yana yuqoridagi singari holat — masalaning yechimi shunchalik oson, tez bajarsa bo‘lar ekan, nega fuqaro sarson bo‘lib, viloyat hokimi orqali o‘sha mutasaddiga murojaatini aytishi kerak? Fuqarolarga bunday munosabatdan mutasaddilarning vijdoni og‘rimaydimi?
To‘g‘ri, zimmasidagi burch, majburiyatni bajarmagan mutasaddi yoki xodimga qonun doirasida chora ko‘rildi, buning huquqiy asoslari bor. Ammo vijdon oldidagi so‘rovchi? Bunga yuragining og‘rimay javob bera olasizmi?
G‘olib HASANOV.



Turmush chorrahalarida

- Ўғлингиз ана у қўшни қишлоқдағи Боқи чўлоқ бор-қу, ўшанинг қизини яхши кўриб қолибди. Яқинда армиядан келдинг, олий ўқув юртига ўқишга имтиёзли йўлланманг бор. Ўқи, ўқишни битир, кейин уйлансанг ярашади, болам, - деб насихат қилсам ҳам қайсарлик қилиб туриб олган.
- Нима? Боқи чўлоқнинг қизи? - Қодир бува жаҳл билан ёнбошидағи ёстиқни кўксига қўйди-да, кампирига юзланди.
- Ўғлинг энди йигирмага кир-япти, уйлангиси келибдими? Яна кимнинг қизига дегин, мен унга кўрсатиб қўяман уйланишни!
- Отаси, ўзингизни босинг, икки ёш бир-бирини яхши кўриб қолибди. Қизга ҳар томондан совчилар келяпти экан.
- Бўлди, иккинчи марта бу гапни эшитмайин. Ўғлинг олий ўқув юртига киради, ишга жойлашади, уйланиш масаласини кейин ҳал қиламиз...
Собир келажак ҳаётини Назирасиз тасаввур қилолмади. Аммо Собир отасининг эътирозига қаршилиқ қилолмасди. Учрашувда буни Назирага овози титраб айтди.
- Тушунарли, сиз «севаман» деганингизда, сўзида турадиган мард йигит деб хато ўйлаган эканман. Нима ҳам дердим, энди учрашаймиз, мени унтинг, хайр. - Назира кўзлари ёшланиб, бурилиб кетди.
- Назира, тўхта! Мен сенсиз яшолмайман!..
Собир ўқишга кирганда ҳам, таҳсил давомидида ҳам Назирани унута олмади. Иккинчи курсга ўтган эди аудиторияга институт ректори кириб келди.
- Ҳурматли талабалар, сизларга хушхабар олиб келдим, - деди ректор ғурур билан. - Лондонда ўтказилган халқаро танловда Собир Қодировнинг юрак тўғма хасталигини тигсиз даволаш бўйича ғояси ғолиб деб топилди. Энди у Оксфорд университетига грант асосида ўқини давом эттирадиган бўлди...
Шу воқеага ҳам ўн йил бўлибди. Собир Ватанга қайтиб, вилоят кардиология марказида иш бошлади.
- Ўғлим энди уйланиш ҳақида ўйлаб кўрсанг бўларди.
- Ўттизга кириб қўйдинг, - Қодир бува чой қуяётган Сарви холага «Сен нима дейсан», дегандай қараб қўйди.
Сарви хола Қодир бувадан Собирнинг уйланишига қарши чиққани учун хануз норози эди.
- Сиз нима десангиз шу-да, ахир бу уйда ҳамма нарсани сиз ҳал қиласиз-ку! - дея Сарви хола Қодир бувага пичинг қилди.
- Орадан шунча йил ўтсаям, шу воқеага ёпишиб, мингир-мингир қилаверасан, мана, энди вақти келди-да!
- Дугоналарим қатор-қатор невараларни бағрига босиб... - Сарви хола ўзини тутолмай рўмолининг учига кўз ёшларини артди.
- Майли отажон, майли онажон, ўйлаб кўраман. Лекин Назирани унута олмасам нима қилай? Бир дуо қилингизлар, операстя бор эди.
Собир ишдан қайтишида янги газета-журнал олиш учун дўкон ёнида тўхтади. Чикса, машинаси олдиға автобус келиб тўхтади.
- Опа, қучингиз етмас, нима қиласиз бошқаларнинг йўлини тўсиб? - бир йигит оғир сумкани автобусқа қиришаги уринаста аёлга зарда қилди. Аёл қалқиб кетиб сумкаси устиға ўтириб қолди.
«Назирами?» Собирнинг юрағи ҳапқириб кетди. «Ҳа ўша, ҳеч ўзгармабди. Аксинча тўлишиб, янада чиройли бўлиб кетибди». У югуриб бориб, аёлни турғазиб, сумкани оёқ остида олди.
- Тўхтанг, нима қиляпсиз? - Назира бошини кўтариб, қотиб қолди: «Собир аками?»
- Назира, сизмисиз?
- Собир ака!
Иккаласи бир зум тикилишиб қолишди.
- Бирпас четроққа ўтайлик, - Собир сумкаға қўл узатди.

- Йўқ, уйға боришим керак. Шундоғам бозор қиламан деб тикилинчда қолиб кетдим.
- Унда ўзим машинада элтиб қўяман.
- Қандоқ бўларкин, сизни овора қилиб қўяман-да?
- Ҳечқиси йўқ, шу баҳона бироз гаплашиб кетамиз.
Назира эътироз билдирмади, юкини юкхонаға жойлаштирилди.
- Олдинги ўриндиққа ўтирсангиз бўларди.
- Йўқ, менга орқа ўриндиқ қулайроқ.
Йўлга тушишди, «Аввалгидан ҳам лобар бўлиб кетибди, энди нима иш қилар экан?».
- Назира ҳам Собир билан илк учрашувларини эслаб, хотираға чўмганди.
- Кечирасиз, болалар нечта?
- Турмушга чиқмаганман!
- Нима? Собир ҳаяжондан рулни қўйиб юбора-ёзди.
- Ўқишга кирган йилим отам қазо қилди. Онам касалманд. Биласиз, акам-укам йўқ, ёлғиз синглим ёш эди. Ҳам ўқиб, ҳам ишлаб, жуда қийналдим, тунги ресторанларда тунари тонг отгунча идиш-товоқ ювдим. Хусусий фирмаларда фаррошлик қилдим. Кўп йигитлардан совчилар келди. Онам билан синглимни қаровсиз ташлаб кетолмасдим, - у бир зум хўрлиғи келиб, «аслида сизни унутолмасдим» деёлмади.
- Хўш ўзингизда болалар нечта?
- Ҳали бўйдоқман, умрим мусофирчиликда ўтди. Лекин бир зум ҳам сизни унута олмадим. Қаерда ишляпсиз?
- Хусусий трикотаж фабрикасида оддий ҳисоб-чичан. Топиш-тутишим онамнинг дори-дармони, синглимни боқишға етиб турибди. Еттишмовчилик, турмушга чиқмаганим синглимнинг бахтини боғлаб қўйди. Ёш ўтиб боряпти, қолаверса, камбағалнинг қизини ким ҳам келин қиларди.
Бу гапларни эшитиб, Собир ич-ичидан эзилди.
- Назирахон, ўқинманг, ҳали бахтли бўласиз!
- Собир аслида «бахтли бўламиз» демоқчи эди, айтолмади.
- Мана шу қўчадағи уйимизни сотиб, пулига отамни даволатдик. Аммо умри қисқа экан. Ҳозир ижарада яшаймиз. Кредит олиб, уй-жойға навбатда турибман, насиб бўлса, яқинда битади.
- Уқинман!
Учрашувдан сўнг Собирнинг буткул ороми йўқолди. Қўнғироқлашай деса, рақамини олиш эсига келмабди. Шунга қарамай қатъий қарорга келди.
- Нима ҳам дердим, ўғлим, тақдир-пешона дегани шу экан-да, - деди Қодир бува қўлини дуоға очиб. - Қўша қаринглар!
- Қўша қарийдиганлар кимлар экан, биз ҳам билсак бўладими? - хонаға кириб келган Сарви хола ота-болага гина қилган бўлди.
- Бунни ўғлингдан сўра, кампир.
Эртаси кун иш тугаш арафасида Собир Назира ишлайдиган фабрикаға етиб келди.
- Назира! - Собир машинани тўхтатди, чиқиб келаятган қизни қақирди.
- Кечирасизлар, сизлар кетаверинглар, - Назира Собир тарафға қараб юрди.
- Ўх-ўх, бу мажнун ким бўлди экан? - қизлар ортидан қулиб қолишди.
- Ишдан қайтаётгандим, сизни кўриб тўхтадим, - деди Собир.
- Йўғ-эй, адашмасам, духтирхонангиз шаҳарнинг нариғи четида эмасиди? - қулди Назира.
- Марҳамат! - Собир машинасининг олд эшигини очди. - Бу гал орқа ўриндиқ банд.
- Бирор жойға бориб овқатланиб, бироз суҳбатлашиб ўтирсак, нима дейсиз?
- Хафа бўлманг, бугун елжим йўқ, бошқа сафар. Онамға мана бу дорини етказишим керак.
- Тўхтанг, - Собир Назирани биллагидан тутди. - Сизга арзимас совғам бор, йўқ деманг! - У чўнтағидан баҳмал қутча олиб, қизға узатди.
- Вой ўлмасам, бу тилла узук-ку! - Назира қутилмаган совғадан гул-гул очилиб кетди. - Раҳмат, Собир ака! Лекин мен энди бундай совғаға арзимамайман.
- Арзийсиз! Мана бу гулдаста ҳам сизға, - Собир орқа ўриндиқда бир қучоқ гулли олиб, Назираға тутди. - Эртаға уйингизға совчилар боришади.
- Нима? Совчилар? - қутилмаган бахтдан ўзини йўқотиб қўйган Назира бундай ҳолатлар китоблар ва фильмларда бўлади деб ўйларди.
Кўзлари ёшланиб, Собирнинг елкасига ўнсиз бош қўйди...

Тоғаймурод ШОМУРОДОВ.



Ziyoratlar qilmoq erdi bor matlabim, Ibodatlilar qilmoq tilar erdi ta'bim. Karomatlar siyratini ko'rgan kabi...
Ey Samarqand, xokiturob bo'lsam netar?! Quchog'ingga Pir Kulolday to'lsam netar?!
Peshtoqlaring porlab turar intizorday, Gulbog'laring chorlab turar gulbahorday, So'l-sog'laring Tuman oqa, gul O'joyday, Ey Samarqand, xokiturob bo'lsam netar?!
Quchog'ingga Buxoriyday to'lsam netar?!
Buxoriyga non- nasiba tutgan diyor, Har zoriga jonin nisor etgan diyor, Pargoriga Haqdan tole bitgan diyor, Ey Samarqand, xokiturob bo'lsam netar?!
Quchog'ingga Buxoriyday to'lsam netar?!
Afrosiyob ot choptirgan qadamjolar, Ko'hna Siyob...Uch ming yilki shovqin solar. Bir fayziyob go'shadirsan - hushim olar, Ey Samarqand, xokiturob bo'lsam netar?!
Quchog'ingga Siyovushday to'lsam netar?!
Xushhavosan, jannatlaridan nafas tegkan, Xushnavosan, bulbullar ham havas etgan, Xushsafosan, ko'ngillarga safo yetgan, Ey Samarqand, xokiturob bo'lsam netar?!
Quchog'ingga Saroymulkday to'lsam netar?!
Yulduzlaring osmoningda- har biri Oy, Hur qizlaring - xushtakallum va xushchiroy, Ildizlaring- Shohizinda ham Ko'ksaroy, Ey Samarqand, xokiturob bo'lsam netar?!
Quchog'ingga Ulug'bekday to'lsam netar?!
Firdavsmakon, ko'ngil ochib bir dillashdik, Ey kahkashon, gulgun- gulgun ko'ngillasdik, Sen gulafshon, gullar sochib... xayrlashdik, Ey Samarqand, xokiturob bo'lsam netar?!
Quchog'ingga ash'or bo'lib to'lsam netar?!
Durposhsho XUDAYNAZAROVA,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

Butunjahon shaxmat olimpiadasida viloyatimizdan kimlar ishtirok etadi?

O‘zbekistonning shaxmat bo‘yicha birinchi chempionati 1930-yilda Samarqand shahrida o‘tkazilgan. 1973-yil oxirlarida ushbu shaharda faoliyat boshlagan shaxmat maktabi esa uzoq yillar davomida respublikada yagona bo‘lib kelgan. Ana shu maktabdan Shuhrat Safin, Tohir Vohidov, Jahongir Vohidov, Ibrohim Hamroqulov, Jo‘rabek Hamroqulov, Aleksey Barsov, Marat Jumayev kabi grossmeysterlar yetishib chiqqan.
So‘nggi yillarda Samarqandda shaxmatning blis va rapid yo‘nalishlari bo‘yicha VI jahon chempionati, III “Women’s Chess Championship” hamda “Grand Swiss 2025” xalqaro turnirlari yuqori saviyada o‘tkazildi. Shaxmatchilarimiz erishayotgan yutuqlar va mavjud salohiyatdan kelib chiqqan holda 46-Butunjahon olimpiadasida ham O‘zbekistonga, xususan, Samarqandga ishonib topshiriladi.
Shu yilning 10-18-sentabr kunlari Samarqand shahrida imkoniyati cheklangan shaxmatchilar o‘rtasidagi III Butunjahon parashaxmat olimpiadasi, 15-29-sentabr kunlari esa 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi o‘tkaziladi. Olimpiadada 45 ga yaqin mamlakat terma jamoalaridan 600 nafar shaxmatchi ishtirok etishi kutilmoqda. Mezbon mamlakat sifatida O‘zbekiston erkaklar va ayollar o‘rtasida uchtdan jamoa bilan qatnashadi.
Davlatimiz rahbarining “2026-yil O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko‘rish hamda shaxmatni ommaviy harakatga aylantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, Samarqand shahrida musobaqaga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rilmoqda.
– Musobaqaning asosiy bahslari “Silk Road Samarkand” xalqaro turistik markazida o‘tkaziladi, – deydi viloyat shaxmat federatsiyasi ijrochi direktori Ilhom Ergashev. – Turnirni yuqori saviyada tashkil etish maqsadida tashkiliy qo‘mita tuzilib, FIDE bilan hamkorlikda yo‘l xaritasi ishlab chiqildi. Delegatsiyalar, hakamlar va ishtirokchilar uchun logistika hamda xavfsizlik masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, Samarqanddagi sport inshootlari xalqaro talablarga moslashtirilib, zamonaviy elektron shaxmat doskalari, raqamli translyatsiya tizimlari, super kompyuterlar va boshqa texnik vositalar bilan jihozlash ishlari yakuniy bosqichda. Nufuzli musobaqalarning olimpiada dasturida viloyatimizdan milliy terma jamoa safida grossmeyster Jahongir Vohidov, xalqaro toifadagi shaxmatchi qizlar Afruza Hamdova, Guldona Karimova, Marjona Malikova, Ozoda Shahzodova hamda Shohina Ahmedova, III Butunjahon parashaxmat olimpiadasi dasturida esa Ilhom G‘ulomov, Amrillo Abdullayev va Ilhom Ergashev yurtimiz sharafiga himoya qilishi kutilmoqda.
Ushbu musobaqa mamlakatimiz sportidagi eng katta voqealardan biri hisoblanadi. Olimpiada orqali nafaqat O‘zbekiston shaxmati, balki Samarqandning boy tarixi, sayyohlik salohiyati va zamonaviy infratuzilmasi butun dunyoga namoyish etiladi. Shu bilan birga, kelgusi avlod shaxmatchilarini tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.
Darvoqe, olimpiada doirasida FIDE Bosh Assambleyasi yig‘ilishi va tashkilot prezidentligiga saylovlar ham Samarqandda o‘tkaziladi.
Fazliddin RO‘ZIBOYEV.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 253 nusxada chop etildi. Buyurtma 297. Hajmi 3 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E‘LONLAR: (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda